


MAVSUMIY ISHCHI VIZASINI RASMIYLASHTIRISH

Ish beruvchi mavsumiy ishchilarni **6** oy muddatgacha ishga taklif qilishga haqli. 

Mavsumiy ishchilarni ishga oluvchi jabxalar Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 25-iyundagi 272-sonli "Mavsumiy faoliyat to'g'risidagi Nizom"da ko'rsatilgan.





<https://likumi.lv/doc.php?id=64019>





Ish beruvchi:





- 1** Bo'sh ish o'rinlarini Davlat bandlik agentligining bo'sh ish o'rinlar portali da ro'yxatdan o'tkazishi lozim.
- 2** **10 kundan** keyin mavsumiy ishchini taklif qilishni tasdiqlash uchun, fuqarolik va migratsiya ishlari bo'yicha **Boshqarmaning (FMIB) hohlagan hududiy bo'linmasiga murojaat qilishi kerak:**

Quyidagi ko'rsatib erkin shaklda ariza topshirish lozim:

-  taklif etilayotgan xorijlik haqida ma'lumot;
-  rejalashtirilayotgan ish haqida ma'lumot;
-  soliq to'lovi bo'yicha qarzdorligi yo'qligi haqida ma'lumot;
-  zarur hollarda avtomatik tarzda ish haqidan ushlab qolinmasligi sharti bilan va mutanosib to'lov evaziga yollanma ishchini yotoq bilan ta'minlanishi haqida tasdiqnoma.

-  taklifnoma uchun ariza bergan ish beruvchining vakili ishonchnoma va shaxsni tasdiqlovchi hujjat taqdim etishi lozim;
-  mehnat shartnomasi yoki uning loyihasi taqdim etish;
-  mehnat shartnomasida ko'rsatilgan ish haqi o'tgan kalendar yilining o'rtacha ish haqiga mos kelishi yoki mavsumiy ishchi qishloq xo'jaligi, o'rmon yoki baliqchilik sohasida ishlash uchun taklif qilingan bo'lsa ish haqi shu sohadagi o'rtacha ish haqiga mos kelishi kerak;
-  Har bir mavsumiy ishchini talif qilish uchun davlat bojini to'lashi kerak.

 Ish beruvchi taklifnomani imzolar ekan bu bilan u taklif qilingan xorijlikning kirishi va maqsadini, viza talabnomasidagi hujjatlarida ko'rsatilgan maqsadiga mos kelishi, belgilangan muddatda uni mamlakatdan chiqib ketishi bo'yicha shuningdek zarur bo'lgan hollarda xorijlik tomonidan tibbiy xizmatlarini olinishi Latviyada istiqomat qilishi va doimiy yashash mamlakatiga qaytib ketishi bilan bog'liq harajatlar to'lovi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.


- 3.** Taklifnoma besh ish kunida tasdiqlanadi. 

Mavsumiy ishchi:








- 1** Taklifnoma tasdiqlanganidan so'ng viza olish uchun ariza topshirish maqs'adida Latviya Respublikasining diplomatik va konsullik vakolatxonasiga murojaat qilishi lozim.

Ishga joylashish uchun rejalashtirilayotgan muddat:



2 **Quyidagi hujjatlar topshirilishi kerak:**



-  Amaldagi yo'l hujjati
-  To'ldirilgan va imzolangan viza anketasi
-  Muddati 6 oydan oshmagan rangli fotosurat (35x45mm)
-  Amalda bo'lgan sayohat tibbiy sug'urtalash polisining nusxasi
-  Davlat bojlari to'langanligini tasdiqlovchi hujjat



Pilsonības un migrācijas
lietu pārvalde



Eiropas Savienības
Iekšējās drošības fonds